



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2025-yil 16-may

VII-9-69-8-0-K/25

Surxondaryo viloyati

### **Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)ni belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi qonunining 46-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6074-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 204-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 12-martdagi 01-05/1732-sonli hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 19-martdagi 22-20-10/104-sonli xulosalari va "Surxondaryo suv ta'minoti" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 19-martdagi 6/316-sonli viloyatdagi suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlari (tariflari)ni belgilash to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Quyidagilar:

Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari) 1-ilovaga;

dizel yoqilg'i bilan transportda tashib yetkazilib beriladigan ichimlik suv narxlari (tariflari) 2-ilovaga;

siqilgan gaz bilan transportda tashib yetkazilib beriladigan ichimlik suv narxlari (tariflari) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Surxondaryo viloyati hokimligi (A.Amirov), "Surxondaryo suv ta'minoti" aksiyadorlik jamiyati (A.Mamatqulov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-avgustdagi "Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida "Namangan viloyati Chust, Pop va Namangan tumanlari ichimlik suv ta'minotini yaxshilash hamda Chust va Mingbuloq tumanlari markazlarida oqova suv tizimlarini qurish" hamda "Oqtosh" va "Poshxurt" yer osti suv manbalaridan suv quvuri qurish yo'li bilan Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanining suv ta'minotini yaxshilash" loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-342-son qarorining 8-ilovasiga asosan:

har chorakda tegishliligi bo'yicha xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga aholini ichimlik va oqova suv bilan ta'minlash darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar to'g'risida;

har yarim yilda xalq deputatlari viloyat Kengashiga aholini ichimlik va oqova suv bilan ta'minlash darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar to'g'risida;

har yili 1-iyunga qadar viloyatda ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflarini qayta ko'rib chiqish orqali iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda korxonalar majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishning moliyaviy manbalarini shakllantirish, ichimlik va oqova suv tariflarini xalq deputatlari viloyat Kengashiga tasdiqlash uchun kiritib borsin;

iste'molchilar sonini va xizmat ko'rsatish hajmlarini oshirish, debitor qarzdorliklarni kamaytirish, suv yo'qotishlari hajmini qisqartirish hamda mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik jihozlash, shuningdek, to'lov intizomini mustahkamlash yuzasidan tuman va shaharlar kesimida tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi bo'yicha har chorakda tuman (shahar) hokimlari tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot berilishini ta'minlasin.

4. "Surxondaryo suv ta'minoti" aksiyadorlik jamiyati (A.Mamatqulov) tuman (shahar)larda aniq manzilli va muddatli reja-grafik asosida 2025-yil aprel-may oylarida aholi o'rtasida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni onlayn amalga oshirish bo'yicha turli shakldagi targ'ibot tadbirlarini tashkil etsin va natijasi yuzasidan 2025-yil 1-iyunga qadar xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritsin.

5. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To'rayev), "Surxondaryo" viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 14-martdagi "Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)ni belgilash to'g'risida" VI-83-49-8-0-K/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingandan keyin o'n besh kun o'tgach kuchga kiradi.

Kengash raisi



CHORIYEV ABDURAIM  
RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 16-maydagi  
VII-9-69-8-0-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Surxondaryo viloyatida taklif etilayotgan ichimlik suvi va oqova suv  
xizmatlari narxlari (tariflari)**

Xizmat turi	Iste'molchilar	O'lchov birligi	Narxi (qo'shimcha qiymat solig'isiz)
Ichimlik suvi	Aholi uchun	1 m <sup>3</sup>	5 300
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m <sup>3</sup>	11 900
	Ulgurji iste'molchilari uchun	1 m <sup>3</sup>	11 900
Oqova suv	Aholi uchun	1 m <sup>3</sup>	2 900
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m <sup>3</sup>	5 200
	Ulgurji iste'molchilari uchun	1 m <sup>3</sup>	5 200

*Iste'molchilarga QQS 12 % qo'shib yoziladi.*

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 16-maydagi  
VII-9-69-8-0-K/25 -son qaroriga  
2-ilova

**Dizel yoqilg'i bilan transportda tashib yetkazilib  
beriladigan ichimlik suv narxlari (tariflari)**

Xizmat turi	Iste'molchilar	Ulchov birligi	Narxi (qo'shimcha qiymat solig'isiz)
Ichimlik suvi	Aholi uchun	1 m <sup>3</sup>	74 800
	Byudjet tashkilotlari uchun	1 m <sup>3</sup>	83 800
	Ulgurji iste'molchilari uchun	1 m <sup>3</sup>	83 800

*Iste'molchilarga QQS 12 % qo'shib yoziladi.*

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 16-maydagi  
VII-9-69-8-0-K/25 -son qaroriga  
3-ilova

**Siqilgan gaz bilan transportda tashib yetkazilib beriladigan  
ichimlik suv narxlari (tariflari)**

Xizmat turi	Iste'molchilar	Ulchov birligi	Narxi (qo'shimcha qiymat solig'isiz)
Ichimlik suvi	Aholi uchun	1 m <sup>3</sup>	62 600
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m <sup>3</sup>	70 000
	Ulgurji iste'molchilari uchun	1 m <sup>3</sup>	70 000

*Iste'molchilarga QQS 12 % qo'shib yoziladi.*